

## ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR

**Muyassarxon Achildiyeva**

*Farg'ona Davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti, "Musiqa ta'limi va madaniyati" kafedrasи o'qituvchisi*

**Bahriiddinova Sabina**

*Farg'ona Davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti, "Musiqa ta'limi yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

---

### ARTICLE INFO.

---

**Kalit so'zlar:** ilmi ta'lif, ilmi iyqo, ilmi advor, fanni musiqiy, Qari Navoiy, tuyuq, turkiy, orzuvoriy, mustazod, muhabbatnama, rud, rubob, qo'biz, g'ijjak, barbat, ud, ayolg'u, navo, parda, lahn, iyqo, naqsh, nag'ma, qo'shiq, surud, savt, peshrav, kor, amal, navo, org'ushtik, bastakor, pardasoz, navosoz, nag'masoz, nag'mapardoz, ohangsoz, mug'anniy, mutrib, ohangnavoz, nag'maog'oz, nag'makash, ahli soz, ahli nag'ma.

---

### Annotasiya

---

Ushbu maqolada ulug'o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi bo'lgan Alisher Navoiyning yozgan asarlaridagi musiqiy atamalar haqida mulohazalar keltiriladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

Musiqa-insonning turli kayfiyatları (ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqalar)ni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatlari (qat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiatini ham yorqin aks ettiradi. Musiqanining ushbu ifodaviy tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari – Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari – Farobi, Ibn Sino, Jomiy, **Navoiy**, Bobur, Kavkabiy, tasavvuf arboblari - Imom G'azzoliy, Kalobodi, Buxoriy va boshqa tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. Endi bevosita, hazrat Navoiyning musiqaga munosabatiga kelsak, Husayn Boyqaro va Navoiy yoshlik paytlarida musiqadan ham ta'lim olishgan. Hattoki, "Boburnoma"da muallif "Alisherbek yana musiqiyda yaxshi nimalar bog'labtur". So'z mulkinining sultonni Alisher Navoiy musiqa ilmini ham juda chuqur egallagan. Uning boy merosi bo'lgan asarlaridan buni yaqqol bilish mumkin. Navoiy Abu Nasr Farobi va Abu Ali ibn Sino ilmiy – musiqiy qarashlarini rivojlantirib, musiqa ilmini o'rganishni asosan ikki qismga bo'ladi: *ilmi ta'lif* (kompozisiya ilmi- musiqiy tovushlar-nag'malar tuzilishini o'rganuvchi fan) va *ilmi iyqo* (musiqiy ritm) hamda ikki yo'nalishda olib boradi: *ilmi advor* (o'n ikki maqomga oid ilm) va *fanni musiqiy* (musiqa san'ati). Ham vokal musiqa va ham cholg'u musiqa bo'yicha kuylar yaratgan deb ta'kidlanayotgan Navoiyning musiqa asarlaridan ba'zilari bizning davrga yetib kelgan, degan tahmin bor. Jumladan, Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida "Qari Navo" yoki "Qadri Navoiy" kuyi haqida yozadi: "Bu kuyning

juda eski bir kuy ekani har tomonda so‘ylanib turur. Eshitishimizga ko‘ra, Farg‘onada ham “Qari Navoiy” ismli eski bir kuy bor. Toshkent musiqachilari bu kuyni “Qari Navo” derlar. Biroq, bu ism yanglishdir. Alar shul “Qari Navoiy” ismini buzib olganlar. Buxoroning eski musiqashunoslarining orasida bu kuy Navoiy asari bo‘lg‘oni so‘ylanadir. Mana shu ma’lumotlardan so‘ng “Qari Navoiy” kuyning Alisher Navoiy asari bo‘lgani ehtimoli kuchlanib qoladir”.<sup>1</sup> Xulosa shuki, Toshkentda “Qari Navoiy” deb ataladigan kuyni Navoiy yaratgan bo‘lishligi joiz.

Navoiy o‘zbek musiqa madaniyati rivojiga, og‘zaki an’anadagi o‘zbek ustozona musiqasi taraqqiyotiga beqiyos ulush qo‘shgan ulkan san’atkor. Navoiyning o‘zi bu haqida “Sabbai Sayyor”da shunday yozadi:

*San’atim anda soz chalmoq ishi,*

*Bilmayin men kabi ishini kishi.*

*Ilmi advoru fanni musiqiy,*

*Medin ul ilm ahli tahqiqi*

Navoiy “Majolisun-nafois” asarida musiqa bilan shug‘ullangan Xorazmlik Xo‘ja Abudal Vofoiy, Jomiyning jiyani Mavlono Muhammad, Binoiy, Muhammad G‘aribiy, Mavlono Shayxiy, Pahlavon Muhammad, Xo‘ja Abdullo kabi san’atkorlarning musiqa ilmiga qo‘shgan hissasini ta’kidlab o‘tganlar.

Navoiy hazratlari yana “Mezon ul-avzon” asarida tuyuq, turkiy, orzuvoriy, mustazod, muhabbatnomma singari xalq qo‘shiqlarining turlari, ularning vazn xususiyatlari to‘g‘risidayam ma’lumotlar berib o‘tgan.

“Xamsatul-mutaxayyirin” asarida esa Mavlono Ali Shohiyning o‘z davrining tengi yo‘q sozandasini ekanligini ta’kidlab, unga musiqadan nazariy darslik yozishni topshirganini ta’kidlab o‘tgan.

“Holoti Pahlavon Muhammad” asari esa Xurosonning mashhur bastakori, o‘n ikki maqomning yetuk darajaga kelishida katta hissasini qo‘shgan Pahlavon Muhammadning musiqiy ijodiga bag‘ishlangandi.

“Mahbub-ul-qulub” asarining Mutrib va mug‘anniyalar qismida “Mutribi tarab afzo va mug‘anniyi g‘amzido—ikkalasiga xolu dard ahli jon qilurlar fido” deya musiqaning odamlar ruhiga kuchli ta’siri haqidagi fikrlarini bildirib o‘tadilar.

Shahzodalarning faqatgina soz jarangini eshitibgina qolmay, musiqa ilmidan boxabar bo‘lishlari uchun ham e’tibor qaratilganki, bu borada Navoiy hazratlari “Xamsat ul- mutahayyirin” risolasida shahzodalarga musiqiy saboq berish uchun Hirotning to‘rtta mashhur musiqashunosiga to‘rtta risola yozish buyurilganini ta’kidlab o‘tadi. Hazratning asarlarida esa bevosita rud, rubob, qo‘biz, g‘ijjak, barbat, ud, ayolg‘u kabi musiqiy asboblar hamda navo, parda, lahn, iyqo, naqsh, nag‘ma, qo‘shiq, surud, savt, peshrav, kor, amal, navo, kabi musiqaga oid so‘zlarni ishlatilganini ko‘rish mumkin. Ayniqla, ayolg‘u to‘ylarda yor-yor o‘rnida ishlatilgan.

Bu borada “Saddi Iskandariy” asarida shunday jumlalar bor:

*Navoiy, Chu sarmanziling Chingadur,*

*Suruding dog‘i sur aro chingadur.*

*Ayolg‘ung necha yor-yor o‘lg‘usi,*

*Mening yig‘larim zor-zor o‘lg‘usi.*

*Yoki “Hayrat ul- abror” da:*

*Turk surudi bila solib qo‘lim,*

<sup>1</sup> A.Fitrat. “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi”. 1993-yil.

*Qilsam ado “Hyey tuligim, hyey tulim”,  
Ul qila olmasa hamovozlik,  
Qilsa ayolg‘u bila damsozlik.<sup>2</sup>*

### **Yoxud:**

*Ayog‘chi ketur jomni lab ba lab  
Ki to ‘y o ‘ldu ayyomi ayshu tarab.  
Mug‘anniy urub changga zabonda jang,  
Navo chekkay “Hay-hay o ‘lan,jon o ‘lan”.  
“Ayolg‘u nega yor-yor o ‘lg ‘usi  
Ming yig ‘laram zor-zor uyqusi.*

Shu tariqa musiqaga ixlos qo‘ygan Navoiy ustod Qulmuhammad Udiy kabi xalq orasidan chiqqan iqtidorlilarni mavlono Alishohga o‘xshash ustoz bastakorlarga topshirib, tarbiya qildirish, yosh hofiz va mashshoqlarning musiqa ilmini puxta o‘zlashtirishlariga yordam beradigan risolalar yozishni Mir Murtozga, shuningdek, Jomiyning “Advor”, “Risolai musiqiysi”, Mavlono Alishohning “Aslulusul”, Zaynulobiddin Husayniyning “Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy”, Mahmudiyning “Risola dar ilmi musiqiy”, Mir Murtozning “Risolai musiqiy”, Abu Alishoh Bo‘kaning “Aslul vasl” singari asarlarining yaratilishiga ham sababchi bo‘ldi.

Navoiy o‘zining “Mezon ul avzon” ismli kitobida tizimda turk vaznlarini ko‘rsatar ekan, “org‘ushtik” oili bir usul doirasi borligini bunda ba’zi musiqiy kitoblarida yozilganini aytib, shundan boshqa bir necha Turk kuylarining ham otlarini bizga bildirib o‘tgandir. Navoiy “Mezon ul avzon”ida shu she’rni yozadir:

*Ay husningga zarroti jahon ichra tajalla mazhar sanga ashyo  
Sen lutf bila kavnu magan ichida movla olam senga movla*

Shuningdek, buyuk mutafakkirning asarlarida musiqa yaratuvchilar bastakor, pardasoz, navosoz, nag‘masoz, nag‘mapardoz, ohangsoz, ijrochilar esa mug‘anniy, mutrib, ohangnavoz, nag‘maog‘oz, nag‘makash, ahli soz, ahli nag‘ma singari atamalar ishlatilganini ham qayd etib o‘tmoq kerak.

Navoiy o‘z asarlarida musiqiy cholg‘ularning shaklu shamoyili, ko‘rinishlaridan toki ijro me’zoni, ohang tarannumi xususiyatigacha falsafiy qarashlari bilan ifodalaydi. Uning musiqiy iboralar bilan uyg‘unlashgan har bir satrlari chuqur ma’noli, musiqiy atamalarning asar g‘oyasi bilan qorishib ketgani bilan alohida ajralib turadi. Navoiy hazratlari musiqa va musiqashunoslarga shu tariqa e’tibor bilan qaragan.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy “Xamsa” 1986 y.
2. Zaxiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” 1989 y.
3. A.Fitrat “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” 1993 y.
4. I.Rajabov “Maqomlar”
5. <https://uz.m.wikipedia.org>
6. arboblar.uz

<sup>2</sup> Alisher Navoiy “Xamsa” 1986 y.

7. I.Akbarov "Navoiy so'ziga musiqalar" 1949 y.
8. Achildiyeva M. Ikromova F. The ballet "Tomaris" in the culture of Uzbek ballet plase and significance Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)
9. Achildiyeva M. Ikromova F. "O'zbek musiqa san'atida maqomning o'rni" Proceedings of Global Technovation 2<sup>nd</sup> International Multidisciplinary Scientific Conferense. London 2020 90-93 bet.
10. Achildiyeva M. Xojimamatov A. Yuldasheva D. Ikromova F. "Uyghur Folk Singing Genre" Turkish Online Journal of Qualitative (TOJQI) Inquiry (Turkiya 2021) 3509-3517 bet (SCOPUS)
11. M.Achildiyeva 2021 Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heristage Annals of Romanian Society for Cyell Biology 25(4) 9092-9100
12. Achildiyeva M, Xojimamatov A, Ikromova F (2022) Shashmaqom saboqlari: "Navo" maqomi xususida. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH 11(01) 55-58
13. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL "An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal" 2 (4) 460-463 bet.
14. Ачилдиева Муяссархон Адилжоновна, Носирова Муслимахон Ойбек қизи, КОРРУПЦИЯ: ТАРИХ ВА ТАҚДИР. «OLIY TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI» XALQARO ILMUY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI TO'PLAMI (2022 yil 6 dekabr) ISSN 2181-1571 (I-qism) 381-388 bet.
15. Achildiyeva Muyassarxon Adiljonovna, Ikromova Farangis, KORRUPSIYA- MILLIY TARRAQIYOT VA JAMIYAT RIVOJI KUSHANDASIDIR. «OLIY TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI» XALQARO ILMUY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI TO'PLAMI (2022 yil 6 dekabr) ISSN 2181-1571 (I-qism) 389-395 bet.
16. Хожимаматов Азимжон Файзулло ўғли, Назархўжаева Рухшонабону Умид қизи, КОРРУПЦИЯ – АСР ВАБОСИ. «OLIY TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI» XALQARO ILMUY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI TO'PLAMI (2022 yil 6 dekabr) ISSN 2181-1571 (I-qism) 396-401 bet.
17. Ikromova F. O'ZBEKISTON XALQ HOFIZI OCHILXON OTAXONOVNING HAYOT YO'LI CHIZGILARI. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE Vol. 1 No. 3 (2022): 151-156
18. Achildiyeva M, Ikromova F REYNGOLD GLIER VA TOLIBJON SODIQOVNING «LAYLI VA MAJNUN» OPERASIDA MAQOM YO'LLARINING QO'LLANILISHI UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 23-28 bet.
19. Xojimamatov A, Ikromova F. MUSIQIY SAHNAVIY ASARLARNING IJROCHILIK MUAMMOLARI (O'ZBEKISTON KOMPOZITORLARI IJODI MISOLIDA) UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet.

20. Ikromova F. SHASHMAQOMDA TURKUM ASAR TARONALARI UIF 2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet.
21. Hojimamatov Azimjon CHANG CHOLG'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI Oriyental Renaissancye: Innovative, yeducational, natural and social sciencies VOLUME 2 | ISSUE 10/2 ISSN 2181-1784 Sciyentific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (265-275 bet).
22. Muyassarxon Achildiyeva SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUYe 10/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (344-352 bet).
23. Xojimamatov Azimjon, Muhammadjonova Mohinur. VIKTOR ALEKSANDROVICH USPENSKIYNING IJODIY YO'LI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E) ISSN: 2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 587-591 bet.
24. Ачилдиева Муяссархон, Аткиёева Рухшона. АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САНЪАТНИНГ ТУТГАН ЎРНИ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 578-583 bet.